



HISTORY AND DEVELOPMENT OF CHILDREN'S LITERATURE IN ENGLISH

Sattarov Farrux Nuridinovich

ISFT instituti Samarqand filiali Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasida katta o'qituvchisi,
PhD.

E-mail: sattarovf@isft.uz

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the historical development and evolutionary stages of English children's literature. It examines the role of children's literature in the spiritual life of society, highlighting its pedagogical, aesthetic, and educational significance. The study traces the origins of English children's literature from folklore traditions to its emergence as an independent literary field in the eighteenth century, its rise to a "golden age" during the Victorian era, and its genre-based and ideological transformations in the twentieth and twenty-first centuries. Particular attention is paid to the contributions of prominent writers such as Daniel Defoe, Jonathan Swift, Lewis Carroll, Charles Dickens, Rudyard Kipling, J.R.R. Tolkien, Roald Dahl, and J.K. Rowling to the development of children's literature. The article also emphasizes the importance of plot construction, character portrayal, the unity of artistic and educational elements, and consideration of child psychology in literary works intended for young readers.

Keywords:

English children's literature, concept of childhood, literary fairy tale, adventure genre, didacticism, fantasy, Victorian era, children's books, aesthetic education, child psychology.

INGLIZ TILIDAGI BOLALAR ADABIYOTI TARIXI VA TARAQQIYOTI

Sattarov Farrux Nuridinovich

ISFT instituti Samarqand filiali Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasida katta o'qituvchisi,
PhD.

E-mail: sattarovf@isft.uz

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz bolalar adabiyotining shakllanishi va tarixiy taraqqiyot bosqichlari izchil tahlil qilinadi. Unda bolalar adabiyotining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni, uning pedagogik, estetik va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Ingliz bolalar adabiyotining folklor manbalaridan boshlab XVIII asrdan boshlab mustaqil adabiy yo'nalish sifatida shakllanishi, Viktoriya davrida "oltin davr"ga erishishi hamda XX–XXI asrlardagi janriy va g'oyaviy yangilanishlari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Daniel Defo, Jonatan Svift, Lyuis Kerroll, Charlz Dikens, Rudyard Kipling, J.R.R. Tolkin, Roald Dal va J.K. Rouling kabi mashhur yozuvchilarning bolalar adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Maqolada

bolalar adabiyotida syujet, obraz, badiiylik va ma'rifiylik uyg'unligi, shuningdek, bola psixologiyasini hisobga olish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar:

ingliz bolalar adabiyoti, bolalik konsepsiyasi, adabiy ertak, sarguzasht janri, didaktizm, fantaziya, Viktoriya davri, bolalar kitoblari, estetik tarbiya, bola psixologiyasi.

Jamiyatning barqaror taraqqiyoti va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi, avvalo, uning yosh avlodi intellektual salohiyati va bilim darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Tafakkurni shakllantirish va ongli idrokni rivojlantirishda esa adabiyot muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, XXI asrda, ya'ni yuqori texnologiyalar va tezkor axborot oqimi hukmron bo'lgan davrda ham adabiyotning o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi, balki aksincha, dolzarbligi yanada ortib borayotganligini alohida ta'kidlash zarur.

Yoshga oid psixologik va idrokiy xususiyatlarini inobatga olgan holda badiiy adabiyotni kattalar adabiyoti hamda bolalar adabiyoti kabi turlarga ajratish mumkin. Shu ma'noda, umumiy adabiyot tizimining muhim tarkibiy elementi bo'lgan bolalar adabiyoti ham san'atning so'zga asoslangan shakli sifatida o'zining estetik va ma'naviy-falsafiy funksiyalarini izchil tarzda rivojlantirib bormoqda.

Bolalar adabiyoti tarkibiga bolalar va o'smirlar auditoriyasiga mo'ljallangan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop hamda publitsistik yo'nalishdagi asarlar majmuasi kiradi. Ushbu adabiy yo'nalishda asosiy o'rinni bolalarga mo'ljallangan badiiy asarlar egallaydi. Jahon xalqlari badiiy adabiyoti ham bolalarga bag'ishlab yaratilgan og'zaki ijod namunalaridan boshlanadi.

Bolalar va o'smirlar adabiyoti namunalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1) bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan folklor namunalari;

2) bevosita bolalar uchun yozilgan asarlar;

3) dastlab bolalarga bag'ishlab yozilmagan bo'lsa-da, davrlar o'tishi bilan bolalar adabiyotiga aylanib qolgan asarlar.

"Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyati – o'zgaruvchan hodisa bo'lib, u kitobxon yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Kitobxon yoshini hisobga olish bolalar adabiyotining eng asosiy xususiyatlaridandir. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarda bu ko'rgazmalilik, ezgulik va yovuzlik kuchlarining oddiy ko'rinishdagi ziddiyatlariga asoslangan bo'lsa, o'smirlar uchun yaratilgan adabiyotlarda murakkab hayotdagi murakkab kishilarning ruhiyati ochila boshlaydi" [10, 124].

Bolalar adabiyotida asarning syujeti turli xatti-harakatlarga boy bo'ladi. Shuning uchun voqea-hodisalarning shiddatli, qiziqarli, xayoliy o'ylarga, yumorga boy tarzda tasvirlanishini talab qiladi. Shu o'rinda aytish kerakki, bolalar uzoq vaqt aytiladigan hikoya va bayonlarga qaraganda qisqa, lo'nda va qiziqarli syujetli hikoyalarni ko'proq yoqtiradi. Kitob o'qiydigan har qanday bolani eng ko'p qiziqtiradigan savollardan biri "Bu yog'iga nima ro'y berar ekan?" degan savol hisoblanadi. Ana shu savolga javob topish uchun kitobxon bola asarni oxirigacha o'qishga oshiqadi.

Yozuvchi bolalalar uchun asar yozar ekan, avvalo, quyidagilarga muhim ahamiyat qaratishi lozim:

- a) bolalarning psixologiyasi;
- b) bolalarning nuqtayi nazari;
- c) bolalarning tushunchalari;
- d) bolalarning fikrlash doirasi.



Bundan tashqari, asarning tili sodda, ravon, tushunarli bo'lishi kerak. Shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, asar matnida kattalar nutqining ko'p uchrashi bolalarning charchashiga hamda asardan tezda zerikishga olib keladi.

Ma'lumki, bolalar adabiyoti asosan ikki yo'nalishdan iborat bo'ladi. U bolalarga mo'ljallangan bo'lib, eng avvalo, ularning hayot tarzi va qiziqishlarini ifodalaydi. Ana shu jihatdan, bu adabiyot ota-onalarning ham, yoshi katta insonlarning ham adabiyoti hisoblanadi. Chunki bolalar adabiyoti – xalq ma'naviy-axloqiy qarashlarini badiiy aks ettiruvchi pedagogik asardir. Bu jihatdan ertakchi yozuvchi H.K.Andersenning quyidagi mulohazalari alohida ahamiyat kasb etadi: “Men nafaqat bolalar, balki kattalar uchun yozayotganimni ham doim esda tutaman” [7, 14]. Bolalarni ertaklarning fabulasi hammadan ko'proq qiziqtirsa, kattalarni ularga singdirilgan g'oya qiziqtiradi.

Haqiqatan ham, bolalar uchun yozilgan asarlarda syujet juda muhim hisoblanadi. Mazkur asarning syujeti qanchalik qiziqarli bo'lsa, bolalar uni shunchalik qiziqish bilan o'qiydilar. Kichik yoshdagi o'quvchilar asar g'oyasini tezda ilg'ab olishga qiynaladilar. Chunki u yoki bu asar g'oyasini anglash uchun asarning qaysi zamonda yozilgani va ifodalangan tarixiy shart-sharoitning mohiyatini tushunish kerak. Bu esa bolalar tushuna olmaydigan qiyin jarayondir.

Chunonchi, Sharl Perroning mashhur “Qizil shapkacha” ertagi har qancha sodda va quvnoq syujet asosida qurilgan bo'lmasin, ham bolalarni, ham kattalarni qiziqtirgani holda unda ifodalangan “Qizil shapkacha”li go'zallarni (qizil shapkacha – go'zallik ramzi, unda fransuz qizlarining umumlashma obrazlari ko'zda tutilgan) fransuz burjuaziyasining shahvoniyatparastligidan (Bo'ri qiyofasida fahshga mukkasidan ketgan burjuylar ko'zda tutilgan) ogohlantirishdan iborat g'oyani faqat asar ijod etilgan tarixiy davr mantiqidan uqa olgan kattalargina ilg'ashlari mumkin.

Shu ma'noda bolalarga mo'ljallangan badiiy asar, avvalo, hammabop qilib yozilganligi bilan ajralib turadi. Bunday hammaboplikning mohiyati V.G.Belinskiy tomonidan quyidagicha tasvirlanadi: “...bolalar uchun kitob yozish shart va zarur, bolalar uchun shunday yaxshi va foydali asarlar yozish zarurki, ular kattalarni faqat bolalarga atalganligi tufayligina emas, balki chinakam badiiy asar sifatida hammaga mo'ljallanganligi bilan qiziqтира olsin” [7, 18].

“Bolalar adabiyotining xususiyatlaridan yana biri, asar qahramonlarining yoshi hisoblanadi. Kitobxon bolalarni katta yoshli qahramon va uning ko'rsatmalaridan ko'ra, o'zlari bilan tengdosh bolalarning sarguzashtlari qiziqtiradi” [6, 102].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, asosan bolalar adabiyotida badiiylik, shu bilan birga ma'rifiylik g'oyalari ham juda muhim hisoblanadi va yetakchi o'rin egallaydi.

Aksariyat xalqlar adabiy merosida bolalar adabiyotining shakllanish jarayoni ma'rifatparvarlik harakatlari va ta'lim tizimidagi islohotlar bilan uzviy aloqador holda kechgan. Ushbu adabiy yo'nalishning bosh maqsadi – bolalarning ta'lim-tarbiyasini ta'minlash, ularning estetik tafakkurini rivojlantirish hamda dunyo haqidagi qarashlarini shakllantirishdan iboratdir.

Bugungi kunda insoniyatni tahlikaga solayotgan va allaqachon dolzarb mavzular qatoridan joy olgan masalalardan biri bu – bolalik va bolaning ichki dunyosidir. Kattalar dunyosidan farqli ravishda, o'zining alohida qonunlari va xususiyatlari bilan mavjud bo'lgan bolalarning sirli “olami”ni o'rganish ilmiy-nazariy jihatdan yangi tushunchalar va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bolaning ijodiy va kreativ salohiyati, shuningdek, uning ma'naviy-axloqiy imkoniyatlari cheksizdir va o'ziga xos rivojlanish jarayoniga egadir. “Bolalikka mos dunyoni o'ziga xos qabul qilishi izsiz yo'qolmaydi. Qayerdadir, “kattalar



ongi”ning xilvat burchaklarida u yashashda davom etmoqda va u vaqti-vaqti bilan o’zi haqida eslatib turibdi” [2, 216].

Ruhshunoslik sohasidagi olimlar bolalar tabiatidagi narsalar va voqea-hodisalarning hatti-harakati, ularning yoshi, nimaga qaratilganligiga, keyinchalik bu narsalarning paydo bo’lishi va voqea-hodisalarning sodir bo’lishi sabablariga qiziqishlari o’tkazilgan uzoq tajribalar va tadqiqotlar asosida asoslangan. Bunday holat voqea-hodisalarni tasvirlashda qiziqarlilikni talab qiladi. Chunki biz ta’kidlayotgan qiziqarlilik tezkor xatti-harakatlar zamirida vujudga keladi. Ana shu tarzda yuzaga keladigan harakatchanlik hikoya qilinayotgan voqelik uchun tanlangan qarama-qarshilikning o’tkir bo’lishini, syujetning tez rivojlanib borishini, xarakterlarning yorqinligini va boshqa shunday badiiy tasvir usullarini taqozo etadi hamda shularda namoyon bo’ladi.

Ta’kidlash joizki, ota-onalar va kattalarning bolalarga nisbatan tutgan munosabati doimiy ravishda bolalar adabiyotida aks etib kelgan. “Agar biz bolalar adabiyotiga mavzu yoki muallifni emas, balki kitobxonlar auditoriyasini anglatuvchi adabiyot deb qaraydigan bo’lsak, u holda bolalar adabiyoti XVIII asrda vujudga kelgan desak mubolag’a bo’lmaydi” [2, 218].

XVIII asrgacha dunyo adabiyotida bevosita bolalar yoki yoshlar uchun yozilgan asarlar deyarli uchramaydi. Bolalarga mo’ljallangan asarlar sifatida esa xalq og’zaki ijodiyoti – jumladan, ertaklar, qo’shiqlar, she’r va tez aytishlargina tilga olinar edi. Fransuz tarixchisi Filipp Ares 1962-yilda nashr etilgan “Centuries of Childhood” (“Bolalik asrlari”) nomli asarida “bolalik” tushunchasining zamonaviy talqini nisbatan yaqin davrlarda shakllanganini ta’kidlaydi. Unga ko’ra, ilgari bolalarga kattalarga o’xshash munosabatda bo’lingan va ular uchun alohida adabiy yo’nalish deyarli mavjud bo’lmagan. Ares XVIII asrgacha Venerebl Bid va Elfrik Eynshem kabi diniy arboblarning ta’limga oid yozuvlaridan tashqari, bolalarga atab yaratilgan maxsus adabiy asarlar bo’lmaganini dalil sifatida keltiradi. Biroq o’rta asrlar davrida diniy mazmundagi ta’limiy va axloqiy ko’rsatmalarni o’z ichiga olgan kitoblar, ayniqsa, badavlat oilalar farzandlari orasida keng tarqalgan edi.

Ingliz bolalar adabiyoti tarixining yetuk tadqiqotchilaridan biri bo’lgan Garvi Dartonning ta’kidlashicha: “Qo’pol qilib aytadigan bo’lsak, XVIII asrgacha Angliyada bolalar uchun kitoblar mavjud bo’lmagan bo’lsa, XVIII asrning o’zida ham bunday kitoblar soni sanoqli edi. Darsliklar, shuningdek, xulq-atvor qoidalariga bag’ishlangan nasihat kitoblari bir talay bo’lsa ham, ularning hech biri bolalarda kitob o’qishdan rohat hissini uyg’otmas, aksincha, ularda berilgan vazifa xato qilishdan qo’rqish hissiningina keltirib chiqarardi. Faqat XVIII asr yarmiga kelibgina, bolalar kitoblari ingliz adabiyotidan alohida, mustaqil adabiyot sifatida ajralib chiqdi” [2, 22]. Adabiyotshunos olim Garvi Darton bolalar adabiyotining shakllanishi va rivojlanishi haqida mulohaza yuritarkan, diniy ta’limga oid matnlar hamda o’quv xarakteridagi asarlarni bolalar adabiyotining to’laqonli namunasi sifatida baholamaydi. Uning fikricha, bunday matnlar bolalarda estetik zavq yoki ijodiy tasavvur uyg’otishdan ko’ra, ularni qat’iy axloqiy va diniy me’yorlarga yo’naltirishni ko’zlagan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Buyuk Britaniyada bolalar uchun maxsus mo’ljallangan adabiyot paydo bo’lishidan ancha oldin, xalq og’zaki ijodi unsurlarini o’zida mujassam etgan ertak va afsonalarga oid rasmi broshyuralar (chapbook) bolalar orasida keng tarqalgan va sevimli o’quv manbasi bo’lgan. Bu turdagi arzon, oddiy shakldagi nashrlar XIX asr boshlariga qadar bolalar tomonidan eng ko’p xarid qilingan hamda mutolaa qilingan adabiy shakllardan biri hisoblangan.

Mazkur broshyuralar quyidagi muhim afzallik jihatlariga ega edi:



- ular arzon narxlarda sotilganligi tufayli keng ijtimoiy qatlamga mansub oilalar ham bu nashrlarni sotib olish imkoniga ega bo'lgan;
- matnning rasmi tasvirlar bilan boyitilishi bolalarda alohida qiziqish uyg'otgan, ularni mutolaaga jalb qilgan;
- bu broshyuralarda asosan xalq og'zaki ijodiga mansub ertak va afsonalarning nashr etilishi ushbu janr namunalari saqlanib qolishi hamda yanada keng tarqalishiga xizmat qilgan.

XVI asrda, ya'ni qirolicha Yelizaveta I boshqaruvi davrida bosma stanoklarning keng joriy etilishi Angliyada nashriyot sanoatining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Aynan shu davrda bolalar uchun maxsus mo'ljallangan yoki ularga bag'ishlab yozilgan ilk kitoblar chop etila boshladi, bu esa bolalar adabiyotining shakllanishi yo'lida muhim bosqich bo'ldi. XVI–XVIII asrlarda Angliyada bolalar uchun yaratilgan adabiyotlarning asosiy vazifasi ularni jamiyatda munosib tarzda o'zini tutishga, axloqiy-ijtimoiy me'yorlarga amal qilishga o'rgatishdan iborat bo'lgan. Ushbu asarlarning ko'pchiligi lotin tilidan tarjima qilingan bo'lib, diniy didaktika asosida shakllangan edi. Protestant cherkovi vakillari bolani “tabiatan tarbiyasiz mavjudot” sifatida tasvirlagan va aynan shu qarashlar bolalar adabiyotining dastlabki yo'nalishlarini belgilab bergan. Bu davr adabiyotiga keskin didaktizm, pand-nasihatga asoslangan mazmun xos bo'lgan. 1702-yilda din arbobi Tomas Uayt tomonidan yozilgan *Kichik bolalar uchun kichik kitobcha* (*Little Book for Little Children*) asari chop etilib, unda muallif bolalarga bema'ni asarlar yoki balladalarni emas, balki Injilni o'qishni tavsiya etadi. Shu davr bolalar adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri shuki, ayrim asarlar otalar tomonidan farzandlariga beriladigan axloqiy ko'rsatma va nasihatlar to'plamidan iborat bo'lgan. Biroq XVIII asr oxirlariga kelib, Angliya adabiyotida ustuvorlik qozongan romantizm oqimi bolalik davriga bo'lgan qarashlarni tubdan o'zgartirdi. Ushbu adabiy yo'nalish vakillari insonning ichki dunyosi, ruhiy o'sishi va shaxsiy o'zligini anglash jarayoni aynan bolalik davrida asos solinishini ta'kidlab, bolalikni yuksak qadriyat darajasiga ko'tardilar. “Romantizm davri asarlarida bolalik insonning o'zidagi bebaho ichki olam sifatida, shuningdek, teran mohiyati va ajoyibotlari bilan kattalarni ham o'ziga rom etuvchi davr tarzida talqin qilinadi. Katta yoshlik davri esa xuddi eng samimiy va bolalarcha beg'uborlik tark etilgan davr sifatida yoritiladi. Shuni tan olish kerakki, romantizm nafaqat bolalikni kashf etdi, balki uni eng sof mukammallik namunasi hamda mehr-shafqat timsoli sifatida insonga meros qilib qoldirdi. Buning natijasida, Angliyada bolalar adabiyotiga munosabat asta-sekinlik bilan o'zgarib boshladi” [8, 215].

XVIII asrda Angliyada bolalar sonining keskin ortishi bolalar uchun maxsus kitob nashr etish sur'atini yanada oshirdi. Bu davrga kelib nafaqat o'quv darsliklari, balki bolalar qiziqishini uyg'otadigan yangi turdagi kitoblarga talab ortdi. Kichik yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan kitoblarning mavjud emasligi ularni kattalar uchun yozilgan adabiyotlarni o'qishga majbur etardi. Masalan, Daniel Defoning 1719-yilda chop etilgan “Robinson Kruzoning sarguzashtlari” va Jonatan Sviftning 1726-yilda chiqarilgan “Gulliverning sayohatlari” asarlari asosan kattalar uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, bolalar orasida keng ommalashdi.

Angliyada bolalar uchun kitob nashr etish borasida yangi davr 1744-yilda Jon Nyuberining “A Little Pretty Pocket-Book” (Ajoyib jajji cho'ntak-kitobcha) nomli asarining chop etilishi bilan boshlandi. Mazkur kitob o'z davri uchun innovatsion yondashuvga ega bo'lib, bolalar adabiyotida o'yin, zavq va ta'limni birlashtirish g'oyasini ilgari surdi. Kitob muqovasida keltirilgan “Delectando Moneus: Instruction with Delight” (“Shodlik ila ta'lim”) degan shior Nyuberining mashhur ingliz faylasufi Jon Lokk g'oyalaridan ilhomlanganini



ko'rsatadi. Lokk o'zining "*Ta'limga oid ba'zi mulohazalar*" nomli esseda bilim berish samarali bo'lishi uchun u mazmunan nafaqat foydali, balki o'quvchi uchun qiziqarli ham bo'lishi kerakligini quyidagicha ta'kidlaydi: "Foydali va qiziqarli – aynan shu ikki xususiyat uyg'un bo'lsa, ta'lim ham zavq, ham foyda keltiradi" [4, 14]. Jon Lokk ta'limga oid qarashlarida bolalarni o'qishga jalb etish uchun ularga yosh va aqliy rivojlanish darajasiga mos, tushunarli va qiziqarli asarlarni taklif etish muhimligini ta'kidlaydi. U bolalarning ertaklardan ko'ra masallarni o'qishlarini ma'qul deb hisoblaydi, chunki masallarda, odatda, axloqiy xulosa mujassam bo'lib, ular tarbiyaviy maqsadlarga xizmat qiladi. Lokk, ayniqsa, Ezop masallarini tavsiya qilib, agar ular rasmlar bilan boyitilsa, bolalarda yanada katta qiziqish uyg'otishini bildiradi. Bu nazariy qarashlarni amaliyotga tatbiq qilgan Jon Nyuberi o'zining "*A Little Pretty Pocket-Book*" asarini rasmi alifbo, maqollar va suratlar bilan bezatilgan Ezop masallari to'plami shaklida nashr ettirgan. Tadqiqotchi Tavnsend esa Nyuberigacha bo'lgan davrda chop etilgan barcha bolalar tomonidan o'qilgan kitoblarni "bolalar adabiyotining tarixgacha bo'lgan bosqichi" [2, 18] deb ataydi. U bu davrga tegishli asarlar sirasiga xalq ertaklari hamda Robin Gud haqidagi afsonalarni kiritadi. Garchi bu asarlar dastlab bolalarga mo'ljallanmagan bo'lsa-da, ular yosh kitobxonlar orasida katta ommalashgan. Shunga qaramay, aynan Nyuberining "*A Little Pretty Pocket-Book*" asari Angliyada bolalar uchun maxsus adabiyot yaratish yo'lida ilk professional yondashuv bo'lib, bolalar adabiyotiga yangicha munosabat va nashriyot faoliyatining shakllanishiga asos soldi.

Davrlar o'tib bolalar adabiyoti taraqqiy etib borar ekan, u badiiylik mezonlariga ham tobora yaqinlashdi va umumadabiy jarayonlar bilan uyg'unlikda shakllana boshladi. Ayniqsa, ingliz bolalar adabiyotining "oltin davri" deb e'tirof etiladigan Viktoriya davrida bu jarayon yaqqol namoyon bo'ldi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, ilgari hukmronlik qilgan qat'iy axloqiy-tarbiyaviy yo'nalishdagi asarlarning o'rnini hazil-mutoyiba, tasavvurga boy sarguzashtlarga asoslangan, bosh qahramoni bola yoki o'smir bo'lgan badiiy asarlar egallay boshladi. Natijada bolalar adabiyoti mazmun va shakl jihatidan sezilarli darajada boyidi, janrlar ko'lami kengaydi va u o'ziga xos mustaqil adabiy yo'nalish sifatida yanada mustahkamlandi. Bolalar uchun yozilgan asarlar son va sifat jihatidan ko'paydi. Ertaklar, fantastik hikoyalar, sarguzasht romanlar kabi janrlar shakllandi. Shu davrda fantaziya va sarguzasht asarlar bolalar orasida keng tarqaldi. Shu nuqtayi nazardan, adabiyotshunos olim Luis Roberts Viktoriya davri bolalar adabiyotini tahlil qilishda uni to'rt asosiy kategoriyaga ajratishni taklif etadi: birinchisi – ertak va adabiy ertak janridagi asarlar; ikkinchisi – tarbiyaviy-axloqiy hamda diniy mazmundagi matnlar; uchinchisi – maktab hayoti va sarguzashtlarga bag'ishlangan hikoyalar; to'rtinchisi esa – oila va uy muhiti tasviriga asoslangan asarlardir [6, 35].

Ayni davr ingliz xalq ertaklari an'analarining boy merosini o'zida saqlagan bo'lib, bu ertaklar asrlar davomida og'zaki ijod shaklida avloddan avlodga o'tib kelgan. Biroq 1823-yilda aka-uka Grimm ertaklarining ingliz tiliga tarjima qilinib chop etilishi ertak janrining, ayniqsa, bolalar orasida ommalashuviga kuchli turtki berdi. Endilikda og'zaki ijod namunasi sifatida mavjud bo'lgan ertaklar adabiy shaklga o'tib, yozuvchilar tomonidan aynan bolalar uchun maxsus yaratiladigan janrga aylandi. Ertaklarning mashhurligi, avvalo, ularning sarguzashtlarga boyligi, bolalar tasavvuriga yaqinligi, shu bilan birga, ularda ezgulik, halollik, shafqat kabi axloqiy qadriyatlar bolalarning ongiga tabiiy tarzda singdirilganidir. Bu borada xalqimiz orasida keng tarqalgan "Ertaklar yaxshilikka yetaklar" degan maqol bejizga aytilmagan. Shu mazmunga yaqin fikrni mashhur ingliz yozuvchisi Charlz Dikens ham ilgari surgan bo'lib, u ertaklarning bolalarda ezgu fazilatlar shakllanishiga xizmat qilishi haqida o'zining e'tiborga molik bo'lgan quyidagi mulohazalarini bildirgan: "Uning (ertakning)



ko‘rinmas yo‘llari orqali bizgacha yetib kelgan rahm va shafqat tuyg‘ularining hisobiga yetish qiyin. Sabr, xushmuomalalik, kambag‘allar va qariyalarga nisbatan mehr, hayvonlarga yaxshi munosabat, tabiatni sevish, jaholat va shafqatsizlikka nisbatan nafrat va shunga o‘xshash ko‘pgina yaxshi xislatlar bolaning yuragiga ilk bor shu kuchli vosita ta‘sirida jo bo‘ladi” [2, 58].

Ingliz adabiyotidagi dastlabki adabiy ertak Jon Raskinning 1850-yilda yozilgan “The King of the Golden River” (“Oltin daryo qiroli”) asari dir. Mazkur asar nafaqat janrning ilk namunasi sifatida ahamiyatli sanaladi, balki keyingi ijodkorlar uchun ilhom manbai bo‘lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida adabiy ertak janri keng ommalashib, bir qator ingliz yozuvchilari tomonidan rivojlantirildi. Jumladan, Jorj Krukshenkning “Fairy Library” (“Sehrli kutubxona”, 1853–1854), Uilyam Tekkereyning “The Rose and the Ring” (“Atirgul va uzuk”, 1855), Frensis Braunning “Granny’s Wonderful Chair” (“Buvining g‘aroyib kursisi”, 1857), Oskar Uayldning “The Happy Prince” (“Baxtli shahzoda”, 1888) hamda Jozef Jekobning “English Fairytales” (“Ingliz ertaklari”, 1890) kabi asarlari bu janrning shakllanishi va taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan.

Jahon bolalarining hanuzgacha katta qiziqish va mehr bilan o‘qiydigan, bir necha bor ekranlashtirilgan “Alice in Wonderland” (“Alisa mo‘jizalar mamlakatida”, 1865) asari ham XIX asrning ikkinchi yarmida yaratilgan adabiy asarlar sirasiga kiradi. Muallif Lyuis Kerrollning mazkur asari fentezi janrini bolalar adabiyotiga muvaffaqiyatli olib kirib, ingliz bolalar adabiyotida yangi bosqich – “oltin davr”ning boshlanishiga zamin yaratgan. “Alisa mo‘jizalar mamlakatida” asari ingliz bolalar adabiyotining tarixiy taraqqiyotida burilish nuqtasi sifatida baholanadi. Mazkur badiiy namuna orqali bolalar adabiyotida sof fantaziya va tasavvur ilgari surilib, o‘quvchini og‘ir didaktik talqinlardan xalos etgan holda, mazmunan va shaklan yetuklikka erishgan. Bu holat bolalar adabiyotining o‘ziga xos estetik qadriyat va badiiy yuksaklikka ega bo‘lishini ta‘minlab, uni kattalar adabiyotidan mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanishiga sabab bo‘ldi.

Charlz Kingslining “The Water-Babies: A Fairytale for a Land Baby” (“Suv bolalari, yer bolasi uchun ertak”) nomli kitobi XIX asrning 60-yillarida fentezi janrida yaratilgan yana bir muhim asarlardan sanaladi. U yozilgan davrda Angliya adabiy muhitida keng ommalashgan va hozirgi kunga kelib Britaniya bolalar adabiyotining eng muhim namunalari qatoridan mustahkam o‘rin egallagan. Mazkur asar o‘zining ijtimoiy-ma‘naviy mazmuni, o‘ziga xos ramziy obrazlari va fantastik syujeti orqali bolalar ongida estetik dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

1857-yilda nashr etilgan Tomaz Hyuzning “Tom Brown’s School Days” (“Tom Braunning o‘quvchilik kunlari”) asari ingliz bolalar adabiyotida maktab muhitini yoritishga qaratilgan yangi adabiy yo‘nalishning shakllanishiga asos soldi. Mazkur asarda muallif maktab sporti, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarni tasvirlar ekan, shaxsning ma‘naviy yetilishi, jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglash va axloqiy burchlarni ado etish kabi g‘oyalarni ilgari suradi. Garchi Hyuzgacha ham maktab hayoti haqida bir qancha asarlar yozilgan bo‘lsa-da, ularning hech biri “Tom Brown” asari singari keng auditoriya e‘tiborini qozona olmagan va bolalar adabiyotida mustahkam mavqega ega bo‘lmagan.

Qirolicha Viktoriya hukmronligi davrida ingliz bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iborat ediki, maktab hayotini aks ettiruvchi sarguzasht romanlarida Britaniya imperiyasi mafkurasining ayrim jihatlarini bolalar ongiga singdirishga intilish holatlari aniq sezilib turardi. Bu holat, ayniqsa, bolalar adabiyoti orqali vatanparvarlik, fuqarolik burchi va imperiyaviy qadriyatlarni targ‘ib etishda yaqqol namoyon bo‘lgan. Shu



bilan birga, ushbu davr bolalar adabiyotida kitobxon auditoriyasi orasida gender asosida ma'lum darajadagi tafovutlar shakllandi. Maktab hayoti va sarguzashtlarga oid asarlar asosan o'g'il bolalarga qaratilgan bo'lsa, oila va uy hayotini tasvirlovchi badiiy namunalarning bosh maqsadli o'quvchilari qiz bolalar bo'lgan. Ushbu turdagi asarlarning aksariyati ayol mualliflar tomonidan yozilgan bo'lib, ular ko'pincha oilaviy muammolar, kundalik hayot voqealari va ijtimoiy-madaniy qadriyatlar masalalarini yoritishga qaratilgan. Albatta, qiz bolalar boshqa janrlardagi asarlarga ham qiziqish bildirgan bo'lishsa-da, ularning o'qish uchun tanlagan adabiyoti, odatda, aynan qiz o'quvchilar uchun mo'ljallangan va ularning ijtimoiy tajribasini aks ettiruvchi asarlar bilan chegaralangan bo'lgan.

Badiiy adabiyotda haqiqiy hayotiy tamoyillarning taraqqiyoti, psixologik tadqiqotlarning olib borilishi bilan bolalar adabiyotida keng ko'lamli, har tomonlama mukammal bolalik obrazini yaratish va ifodalash mustahkamlanib bordi. Shunday sharoitda yozuvchilar insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarini, shuningdek, yosh avlodning shaxsiyati va xarakterining shakllanish jarayonini chuqur tahlil qilishga intildilar. Ular bola ruhiyatining murakkab qatlamlariga ehtiyotkorlik bilan kirib borar ekanlar, uning ichki ziddiyatlari va ruhiy holatlarini, hayotning yorqin hamda dramatik jihatlarini tasvirlash orqali shaxs sifatida yetilish jarayonini badiiy tahlil qilishga harakat qildilar. Bunda hayotdagi turli holatlarning – quvonch va qayg'u, yorug'lik va zulmatning – bola ongidagi aks-sadosi, shuningdek, ularning shaxsiy taraqqiyotiga ta'siri aniq badiiy vositalar orqali yoritildi.

Charlz Dikkins tomonidan yaratilgan "Oliver Tsvistning boshidan kechirganlari" nomli romani bolalar va kattalar orasida keng ommalashgan va sevimli asarga aylangan. Mazkur roman ilk bor 1837-yilda chop etilgan bo'lib, unda muallif Viktoriya davri jamiyatidagi ijtimoiy tengsizlik, bolalar mehnati, yetimlik va qashshoqlik kabi muammolarga e'tibor qaratadi. Asarda bosh qahramon Oliver va uning taqdirida aks etgan boshqa yetim, qarovsiz qolgan va turmush og'irligidan aziyat chekayotgan bolalarning sarguzashtli hayoti orqali Dikkins realistik uslubda ularning ijtimoiy holatini ochib beradi hamda jamiyatda ijtimoiy adolat va insonparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. "Yozuvchi Oliver timsoli orqali tashlandiq bolalarning xatarli, achinarli va dahshatli hayotini, yashash zaruriyati tufayli bilib-bilmay boshi berk ko'chaga kirib qolishlarini tasvirlagan" [1, 11]. Mazkur roman ingliz adabiyotida bola obrazi bosh qahramon sifatida markazga chiqarilgan ilk asarlardan biri sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Charlz Dikkins tomonidan yaratilgan Oliver obrazi orqali bolalar hayoti ilk bor xayoliy yoki ideallashtirilgan emas, balki realistik manzaralarda tasvirlangan. Muallif bolalarning hayotdagi sinovlari, ijtimoiy muammolar bilan to'qnashuvi, ularning ichki dunyosi va ruhiy holatini chuqur yoritgan. Oliver obrazida har qanday qiyinchiliklarga qaramay, o'z axloqiy prinsiplarini saqlab qolgan, insoniylik fazilatlarini yo'qotmagan bolaning hayotiy kurashi aks ettiriladi. Bu holat ingliz bolalar adabiyotida fantastik syujetlardan realistik obrazlarga o'tish jarayonining boshlanganidan dalolat beradi hamda tanqidiy realizm oqimining bolalar obrazlari orqali adabiy jarayonga ta'sir ko'rsatganining yorqin namunasi sifatida qaraladi.

XIX asrning 80-yillariga kelib ingliz bolalar adabiyotida sarguzasht janri kitobxonlar orasida eng ommabop adabiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, bu davrda mazkur janrda yaratilgan asarlar bolalar tomonidan katta qiziqish bilan o'qila boshladi va ular orasida keng muvaffaqiyat qozondi. Ushbu yo'nalishdagi ko'plab asarlar o'z ilhom manbasini Daniel Defoning mashhur "Robinzon Kruzo" romanidan olgan bo'lib, bu asar sarguzasht janrining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Luis Stivensonning "Treasure Island" ("Xazinalar oroli", 1883) hamda "The Strange Case of Dr. Jekyll and Mr. Hyde" ("Doktor Jekyll va janob



Xaydning g'alati holati", 1886) nomli asarlari, shuningdek, Redyard Kiplingning "The Jungle Book" ("O'rmon kitobi", 1894–1895) va "Kim" ("Kim", 1901) romanlari ingliz bolalar adabiyotida sarguzasht janrining klassik namunalariga aylangan bo'lib, yosh kitobxonlar orasida katta mashhurlikka erishgan. Bu asarlar orqali bolalarga nafaqat sarguzasht ruhi, balki jasorat, vatanparvarlik, do'stlik va insoniy qadriyatlar singari tushunchalar ham singdirilgan.

XX asrda Britaniya bolalar adabiyotida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Asrning o'ziga xos xususiyatlari – ijtimoiy inqiloblar, urushlar, keskin ijtimoiy muammolar va siyosiy qarashlarning ziddiyatlari – bolalar adabiyotiga ham ta'sir ko'rsatib, uning mazmuni va shaklini o'zgartirdi. Bu davrda adabiyot nafaqat bolalar ongini tarbiyalashda, balki ularga jamiyatdagi murakkab va ziddiyatli holatlar haqida tushuncha berishda ham muhim rol o'ynadi. "Dunyoning dahshatlari kichik kitobxon asarlari sahifalariga ham kirib bordi. Ularning qahramonlari – ijtimoiy jonzotlar, ular o'z holicha insonga nisbatan qilingan vahshiylikka qarshi borishadi, o'zlarining do'stlikka, muhabbatga bo'lgan huquqlarini talab qilishadi va kattalarni ularni tushunishlariga chaqirishadi. Zamon muammolari nafaqat realistik asarlarga, balki ertaklarga ham kirib bordi. Ular janr xususiyatlaridan ozgina chekingan bo'lsalar-da, hamon yaxshilik yovuzlik ustidan g'alaba qozonishiga umid bog'lashadi va shu yo'lda tinimsiz ma'naviy kurashlar olib borishadi" [9, 88].

Britaniyada bolalar adabiyotining oltin davri Birinchi jahon urushi boshlanguniga qadar davom etdi. Ikkinchi jahon urushi davrida adabiyotning rivojlanish sur'ati keskin susaydi. Biroq adiblar bolalar uchun asar yozishni davom ettirdilar. 1926-yilda A.A.Milning "Vinni Pux" va 1937-yilda J.R.Tolkinning "Hobbit" asarlari nashr etilib, o'sha davrda ingliz bolalar adabiyotining rivojiga katta hissa qo'shildi. Shu bilan birga, "Puffin Books" nashriyoti o'zining arzon narxlardagi nashrlari orqali Ikkinchi jahon urushi yillarida ingliz bolalarining kitob olamidan uzilib qolmasliklarini ta'minladi.

1950-yillariga kelib, Ikkinchi jahon urushining iqtisodiy va ijtimoiy inqirozidan biroz tiklangan Britaniyada bolalar adabiyotining nashri yana rivojlanishni boshladi va bir qator mashhur yozuvchilarning asarlari nashr etildi. Shu davrda Klayv Steypls Lyuisning "The Chronicles of Narnia" (1950-yillar), Dodi Smitning "The Hundred and One Dalmatians" (1956), Roald Dalning "James and the Giant Peach" (1961) va "Charlie and the Chocolate Factory" (1964) kabi asarlar keng o'quvchilar ommasiga yetib bordi. Ushbu asarlar nafaqat kitoblar sifatida, balki bolalar uchun mo'ljallangan filmlar shaklida ham ekranlashtirildi.

"XX asr oxirida, ya'ni 1997-yilda Joan Rouling o'zining "Garri Potter va falsafa toshi" asarini chop ettirdi va ushbu asar tez orada dunyoning bir necha tillariga tarjima qilinib, nafaqat ingliz balki, butun dunyo bolalarining sevimli kitoblari qatoridan joy oldi. Asarning muvaffaqiyati kitoblar hali hanuz ingliz bolalarining eng yaqin do'stlari ekanligidan darak beradi" [3, 136].

Xulosa qilib aytganda, ingliz bolalar adabiyoti ko'plab davrlar davomida rivojlanib, bolalar uchun mo'ljallangan kitoblar, ertaklar va o'quv qo'llanmalar shakllangan murakkab yo'lni bosib o'tdi. Angliya bolalar adabiyotining XVII-XVIII asrlardan hozirgi kungacha bo'lgan tarixi tahlil qilinsa, uning doimiy ravishda rivojlanib, turli janrlarda yangilanib borganini ko'rish mumkin. Bu davr mobaynida adabiyot hech qachon o'z rivojlanish jarayonida to'xtab qolmagan va har doim yangi shakllar va mazmunlarda taraqqiy etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bayu Wardhana. Coping with Children Bulling Reflected in Charles Dicken's Oliver Twist: an Individual Psychological Approach: Department of Education School of



- Teacher Training and Education Muhammadiyah University of Surakarta, 2016. – 211 p.
2. Briggs J., Butts D. Popular Children's literature in Britain. – London and New York: Published 2016 by Routledge. – 356 p.
 3. Feldman, Raxonne. The Truth about Harry. – School Library Journal, September 1999. – P. 136-139.
 4. Fowler A. Kinds of literature: An Introduction to the Theory of Genres and Modes. – Cambridge, Mass: Harvard University Press, 1982. – 376 p.
 5. Sattarov F.N. XIX asr Ingliz bolalar adabiyotining o'zbek bolalar adabiyotiga: Filol.fan.b.fals.dok. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2025. – 52 b.
 6. Адабиёт назарияси: 2 жилдлик. М.Нурмухамедова тахрири остида. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1979. – 449 б.
 7. Бабаева С. Ўзбек ва АҚШ адабиётида балаликнинг бадиий талқини (Ғ.Ғулом ва М.Твен ижоди мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 54 б.
 8. Гарт Ф.Б. Возникновение «короткого рассказа» // Писатели США о литературе. Т. 1. – Москва: Прогресс, 1982. – 204 с.
 9. Тугушева М. Чарльз Диккенс. Очерк жизни и творчество. – Москва: Детская литература, 1979. – 288 с.
 10. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси 2-жилт. “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси”. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2001. – 704 б.